



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## O‘ZBEK NASRINAMUNALARINING URDU TILIDAGI TARJIMALARIDA SALBIYLIKNI IFODALOVCHI SO‘ZLARINING BERILISHI

*Mohira Umarova*

*O‘qituvchi,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** asliyat, urdu tili, qarg‘ish, nutqiy ekspressivlar, bevosita va bilvosita qarg‘ishlar, analogiya, so‘zma-so‘z tarjima, tarjimon.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada salbiylikni ifodalovchi leksik birliklar qarg‘ish, la‘nat va shu kabi so‘zlar va ularning tarjimalariga doir masalalar ko‘rib chiqilgan. Dunyo va o‘zbek tilshunoslik va tarjimashunosligida ushbu muammoga bag‘ishlangan ishlar, tadqiqotlar keltirib o‘tilgan. Mazkur maqolada P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani G.G‘ulomning “Shum bola” qissalari adabiy manba sifatida tanlab olingan. hamda mazkur asarlardan olingan qarg‘ish, la‘nat va umuman, salbiylikni ifodalovchi misollar urdu tilidagi va ba’zi o‘rinlarda rus tilidagi variantlari bilan o‘zaro chog‘ishtirilib, tahlil qilingan. Tahlil qilish jarayonida tarjimon mahorati, keltirib o‘tilgan so‘zlarni tarjima qilishda qanday usullar qo‘llanilgan, ular o‘rinlimi yoki yo‘qmi, agar noo‘rin bo‘lsa, qanday o‘girilgani ma‘qul ekanligi haqida yozilgan. La‘nat va qarg‘ish so‘zlarni tarjima qilishda din, milliy mentalitet va turmush tarzining o‘rni, o‘zbek va urdu tillarida bunday omillar qanday ifoda etilgani to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Bu kabi so‘zlarda gender masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Binobarin, ayol kishi muloqotida ko‘proq qarg‘ish so‘zlarni ifodalasa, erkak kishi nutqiga ko‘proq haqorat va so‘kish xos ekanligi misollar bilan ham isbotlangan.

Har ikki mamlakat nutqiga hayvon so‘zini yoki hayvon nominigina o‘zini qo‘llab haqoratlash kuzatilishi, bunda hayvonlar o‘sha mamlakat milliyligidan, dinidan va dunyoviy qarashlaridan kelib chiqib tanlanishi, aynan “Yulduzli tunlar” romani va “Shum bola” qissasida bu kabi so‘zlar analog usuli bilan tarjima qilingani va tarjima o‘rinli bo‘lgani haqida yozilgan.

---

**PRESENTATION OF WORDS EXPRESSING NEGATIVITY IN URDU LANGUAGE  
TRANSLATIONS OF UZBEK PROSE EXAMPLES**

---

**Mahira Umarova**

*Lecturer,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

**ABOUT ARTICLE**

---

**Key words:** curse, original, Urdu language, curse, verbal expressions, direct and indirect curses, analogy, literal translation, translation, translator

**Abstract:** This article discusses the issues of lexical units expressing negativity - curses, curses and similar words and their translations. In world and Uzbek linguistics and translation studies, works and studies devoted to this problem are presented. The novel "Starry Nights" by P. Kadyrov and the stories "Shum Bola" ("Mischief Maker") by G. Gulyam were chosen as literary sources. Also, examples of swearing, cursing and general negativism taken from these works are compared and analyzed with their variants in Urdu and, in some cases, in Russian. During the analysis, attention is paid to the skill of the translator, the techniques used in translating the quoted words, their relevance, and if inappropriate, the ways of possible translation. The article provides information about the role of religion, national mentality and lifestyle in the translation of swear words and how these factors are expressed in Uzbek and Urdu languages. Gender issues are also touched upon in such words. It is also proved by examples that if a woman expresses more curses in her communication, then a man's speech is characterized by a large number of insults and curses.

In the speech of representatives of both countries, insults are observed using the word "animal" or animal names, while the names of animals are chosen based on the nationality, religion and ideological views of that country, it is in the novel "Starry Nights" and in the story "Noise Bola" that such words are translated using the method of analogy, and the author of the article believes that that the translation is appropriate.

---

**ПРЕДСТАВЛЕНИЕ СЛОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ НЕГАТИВ, В ПРИМЕРАХ  
ПЕРЕВОДОВ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЫ НА УРДУ**

**Махира Умарова**

*Преподаватель,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** оригинал, язык урду,

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы лексических единиц, выражающих

---

проклятие, речевые экспрессивы, прямые и опосредованные проклятия, аналогия, буквальный перевод, перевод, переводчик

негативность - ругательств, проклятий и подобных им слов и их переводов. В мировом и узбекском языкознании и переводоведении приведены работы и исследования, посвященные этой проблеме. В качестве литературных источников были выбраны роман «Звездные ночи» П. Кадырова и рассказы «Шум бола» («Озорник») Г. Гуляма. Также примеры ругательств, проклятий и общего негативизма, взятые из этих произведений, сравниваются и анализируются с их вариантами на урду и, в некоторых случаях, на русском языке. В процессе анализа уделено внимание мастерству переводчика, приемам, использованным при переводе цитируемых слов, их уместность, а если неуместности – пути возможного перевода. Приводится информация о роли религии, национального менталитета и образа жизни в переводе ругательств и о том, как эти факторы выражаются в узбекском и урду языках. В подобных словах затрагиваются и гендерные вопросы. Также на примерах доказано, что если женщина в своем общении выражает больше проклятий, то речь мужчины характеризуется большим количеством оскорблений и ругательств.

В речи представителей обеих стран наблюдаются оскорбления с использованием слова “животное” или названий животных, при этом названия животных выбираются исходя из национальности, религии и мировоззренческих взглядов той страны, именно в романе «Звездные ночи» и в рассказе “Шум бола” такие слова переведены с использованием метода аналогии, и автор статьи считает, что перевод уместен.

---

## KIRISH

Tilak, duo va olqish soʻzlarining aksi sifatida qargʻish, laʼnat va salbiy munosabatni ifodalovchi soʻzlarni keltirish mumkin. Bunday soʻzlar badiiy asarlarda, sheʼriyatda, nutq jarayonida unchalik koʻzga tashlanmaydi. Ogʻzaki nutqda ham, badiiy asarda ham ularni kishilar asosan urishish, jahl chiqqan vaqtida, baʼzi hollarda esa ataylab, kimningdir dilini ogʻritish, unga azob berish uchun ishlatadilar. Yuqorida taʼkidlanganidek, olqish va qargʻish soʻzlari millatning oʻziga xos milliyligini oʻzida aks ettiradi, milliy koloritini namoyon qiladi. Albatta, bunday soʻzlarni haddan ziyod koʻp qoʻllash yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi. Ammo meʼyorida, til va madaniyat meʼyorlariga amal qilgan holda qoʻllanilgani asardagi oʻziga xoslikni ochib berishga ham xizmat qiladi.

Tarjimashunoslik va tilshunoslikda qargʻish va salbiylikni ifoda etish boʻyicha bir nechta tadqiqotlar olib borilgan: X.Hamidov , B.Oʻrinboyev , A.Vejbitskaya , I.Kryukova , J.Ostin , O.Meshkova va boshqalar tomonidan yozilgan maqolalar, tadqiqot ishlari aynan shu mavzuga bagʻishlangan.

Laʼnat, qargʻish – bu verbal agressivlik sohasiga oid boʻlgan nutqiy akt sanaladi va odatda, u oʻzida asosan noodatiy, gʻayritabiiy kuchlarga ishora qilgan holda, boshqa shaxsga yomonlik va yovuzlik tilashdir.

Bunday soʻzlar borasida oʻzbek va jahon tilshunosligida va tarjimashunosligida koʻplab tadqiqotlar qilingan.

Jahon va rus tilshunosligida qarg‘ish, la‘nat va olqish so‘zlari nutqiy akt, nutqiy ekspressivlar sifatida o‘rganiladi. Masalan, Polsha va Avstriya tilshunosi A.Vejbitskaya ham istak, tilak va duolarni anglatuvchi so‘zlarni tadqiq etgan hamda bu borada shunday fikr keltirgan: “Anna Vejbitskaya ta’kidlashicha, qarg‘ish, la‘nat, olqish va duolar J.Ostin tomonidan faqatgina niyat va tilaklar sifatida o‘rganiladi va bu tushunchalarda o‘z aksini topgan sehrli yoki diniy dunyoqarash e’tiborga olinmaydi. “Duo, la‘nat hamda qarg‘ish bir tomondan, boshqa tomondan tilak o‘rtasidagi asosiy farq – birinchi holatda, talaffuz qilinayotgan so‘zlarning kuch-qudrati nazarda tutilsa, ikkinchi holatda ularning kuchsiz va qudratsizligi taxmin qilinadi”<sup>1</sup>. Olim fikriga ko‘ra, la‘nat va qarg‘ish ham tilakning bir ko‘rinishi, ular o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan sanaladi. Shu jihatdan tilshunoslar qarg‘ish so‘zlari bilan olqish so‘zlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganganlar.

N.R.Norrik esa ekspressivlarni hissiyot va emotsiyalarni ifoda etuvchi aktlar sifatida tavsiflaydi va ularni ma’lum vaziyatlarga reaksiya sifatida vujudga keladi, deb belgilaydi. Bular qatoriga, uzr, tabrik, hamdardlik bildirish, tanbeh berish, norozi bo‘lish, salomlashish, xayrlashish, olqish so‘zlarini kiritadi<sup>2</sup>.

N.R.Norrikning fikrini S.Marten-Klif tanqid qiladi. Uning fikricha, ekspressivlar gapirayotganning samimiy hislarini ifodalash uchun aytiladi. Demak, S.Marten-Klifning fikricha, hissiyot psixik asos sifatida ekspressivlarning markaziy tavsifidir. Uning nihoyatda batafsil berilgan tasnifida ekspressivlar o‘xshashlik va farqlar asosida guruhlashtiriladi, bular qatoriga, kompliment, tabrik, ezgu tilak, salomlashish, minnatdorchilik kiradi<sup>3</sup>.

Qarg‘ish – bu kimnidir yoki biror narsaga qarshi yomonlik tilab, la‘nat so‘zini o‘z ichiga olgan birikmadir. U kimgadir o‘lim, yomonlik, Yaratgandan kimgadir nisbatan Alloh, xudoni nomining keltirib, yovuzliklar tilab aytiladi. Yoki yashirin ma’noda, Alloh nomini ishlatmasdan qarg‘ish so‘zi aytilishi mumkin.

Qarg‘ish va umuman, salbiylikni ifoda etuvchi haqorat so‘zlari badiiy asarlarda, asosan, kommunikantlarning o‘zaro nutqi jarayonida ishlatiladi.

Qadimdan o‘zbeklarda ota-ona va umuman, yaqin kishi tomonidan qilingan qarg‘ish kuchliroq bo‘lishi, albatta adresatga yetib borishi haqidagi qarashlar va tushunchalar mavjud. Lekin ko‘p hollarda bunday qarg‘ishlar shunchaki, asabiylashganda, g‘azablenganda bexosdan aytib yuboriladi.

O‘zbek xalq qarg‘ishlari haqida maxsus tadqiqot olib borgan F.Eshboyeva o‘zining “O‘zbek xalq qarg‘ishlarining janr xususiyatlari va badiiyati”<sup>4</sup> nomli dissertatsiyasida bu borada fikrlar keltirgan.

Jumladan, F.Eshboyeva quyidagi fikrlarni bildiradi: “Qarg‘ish – biror kishiga ziyon-zahmat yetkazishga ehtiyoj sezilgan paytda aytuvchining qarg‘ish qaratilgan shaxsga nisbatan bo‘lgan yomon niyatining ifodasi sifatida ijro etiladigan folklor asaridir. Bu janr o‘ziga xos belgilari va aytuvchi istagini ifoda etishiga ko‘ra so‘kish, olqish janrlariga yaqin turadi<sup>5</sup>. Albatta, folklorshunoslikda bu janr olqish va so‘kish janri bilan uzviy bog‘liq sanaladi, shu bilan birga bir-biriga zid ham sanaladi.

Fanda qarg‘ishlarning bir nechta turi farqlanadi. F.Eshboeva qarg‘ishlarning qo‘llanish ko‘lami va obyekt turlaridan tashqari, ziyon-zahmat yo‘llash usullariga ko‘ra ikki asosiy ko‘rinishini farqlaydi:

1. Bilvosita qarg‘ishlar.
2. Bevosita qarg‘ishlar<sup>6</sup>.

<sup>1</sup> Вежбицкая А. Речевые акты. Перевод с англ. С.А.Крылова // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. Лингвистическая прагматика / Общ.ред. Н.Н.Попов. – М.:Погресс, 1985. – С. 251–256.

<sup>2</sup> Norrick N. Expressive Illocutionary Acts // Journal of Pragmatics. –1978. – Nr. 3. – P. 277–291.

<sup>3</sup> Marten-Cleef S. Gefühle ausdrücken. Die expressiven Redeakte. –Göppingen: Kümmerle Verlag, 1991. – 371 s.

<sup>4</sup> Эшбоева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадийати: Филол. фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 149 б.

<sup>5</sup> O‘sha asar. – B.30.

<sup>6</sup> O‘sha asar. – B. 88.

Tanlab olingan asarlarda ham qarg‘ishning bir nechta turlari tahlilga tortildi. Masalan, kishining o‘ziga qaratila aytilgan haqorat, salbiy so‘zlar va qarg‘ishlar. Bular F.Eshboyevaning tasnifiga ko‘ra “bevosita” qarg‘ishlar sanaladi:

G‘.G‘ulomning “Shum bola” romanidan olingan parchada onaning sho‘x farzandiga qarg‘ish so‘zi bilan qilgan murojaati keltiriladi.

– Hoy, juvonmarg, zumrasha, tag‘in ko‘chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo‘nashtirib ket, tutay berib ko‘zimni ko‘r qilayozdi. [Sh.B. 28.]

” ارے منحوس، چھو کرے ” بے کارے کی دوڑ دھوپ کے سوا تجھے کچھ بھی تو نہیں آتا۔ والدہ ایک بار پھر ژانٹھے کے انداز میں چلائی۔

Ushbu parchada ona o‘z farzandining hadeb ko‘chaga chiqib ketaverganidan jahli chiqib, uni koyiydi hamda “juvonmarg” qarg‘ishini ishlatadi. “Juvonmarg” qarg‘ishi ma‘lumki, erta, vaqtli o‘tib ketgan insonga nisbatan ishlatiladi: “Juvonmarg – (f. – yosh, bevaqt o‘lgan) – 1. Yosh o‘lgan, avji yetilgan paytida halok, nobud bo‘lgan. 2. Qarg‘. – O‘lgur, yer yutgur”<sup>7</sup>. Qissadan bizga yaxshi ma‘lumki, aslida ona o‘z farzandiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi, lekin mazkur vaziyatda u jahl ustida farzandini qarg‘ab yuboradi. Ushbu misol orqali biz, genderlik masalasini ham kuzatishimiz mumkin: aniqrog‘i, qarg‘ashda ayol va erkak nutqiga oid qarg‘ish so‘zlari ham farqlanadi. Kommunikantlarning ayol yoki erkak sotsial tipiga mansubligi muloqot jarayoni uchun ahamiyatlidir. Umuman, qarg‘ish so‘zlari ko‘proq ayollarga xos bo‘lsa, so‘kish, haqoratli so‘zlarni qo‘llash erkaklarga xos jihat sanaladi. Azal-azaldan qarg‘agan, salbiy ma‘nodagi so‘zlarni ishlatgan ayollar jamiyat tomonidan qoralangan. Chunki qarg‘ish, la‘nat so‘zlari ham, so‘kish ham har qanday nutqni nursizlantiradi, xunuklashtiradi.

Urdu tilida bu qarg‘ish so‘zi “ارے منحوس” – “Ey badbaxt, jirkanch” degan ma‘noni bildiradi. Mantiqan olib qaralsa, “منحوس” – so‘zi ham, juvonmarg so‘zi ham yomonlikni anglatadi. O‘zbek tilida, asosan ayollar nutqida bu qarg‘ish so‘zi ko‘p uchraydi. Ular asosan farzandlariga yoki yoshlarga nisbatan bu so‘zni qo‘llaydilar va keltirilgan misolda ham shu holat aks etadi. Ammo bu jumladagi tarjima analogiyasi u qadar o‘rinli qo‘llanilmagan. Urdu tilida aynan shu so‘zning ekvivalenti: “جوان مرگ” [jawan marg] – “yoshlikda vafot etgan” so‘zi mavjud. Urdu tilining izohli lug‘atida mazkur so‘z qarg‘ish o‘rnida ham kelishi yozilgan. Shu sababli ushbu qarg‘ishni ekvivalenti bilan berish maqsadga muvofiq va tushunarliroq bo‘lar edi.

Jumladagi “zumrasha” so‘zi ham asosan salbiy konnotatsiyadagi so‘z hisoblanadi. “Zumrasha – s.t. Har qanday yomon, nojo‘ya ish qo‘lidan keladigan bola; shumtaka, tirrancha, tirmizak”<sup>8</sup>. Mazkur so‘z ham o‘zida ko‘proq salbiylikni mujassam etadi. Ba‘zan ijobiy ma‘noda ham, erkalash-koyish so‘zi sifatida kishi nutqida ishlatilishi ham mumkin. Bu so‘z tarjimada o‘z aksini topmagan.

Yana bir shu asardan olingan misolda “juvonmarg” so‘zi boshqa so‘z bilan o‘girilgan. Masalan:

– Agar hammasi bo‘lmasa, butun yolg‘on qilsang, men xonavayron bo‘lar ekanman-da, tur-e, padaringga la‘nat sening, qorning oshga to‘ymasin, juvonmarg bo‘l! [Sh.B.69]

اگر یہ بات تب تو تو مجھے میری ساری دولت ہی سے محروم کر کے رکھ دے گا! دور ہو جا میری نظروں سے [سرگزشت ایک لڑکے کی - ۵۸ ص -]! تجھے کم سنی ہی میں موت آ جائے! تو ہمیشہ بھوکا تڑپتا رہے!

Qissadan olingan misolda bir nechta salbiy mazmundagi so‘zlar kelgan va ularning hammasi turli xil ma‘nolarga ega.

1. Tur-e, padaringga la‘nat sening – bu yerda jumlaning birinchi qismida fe‘lga “e” harfi qo‘shilib, salbiy his-tuyg‘u ifoda etilgani kuzatiladi. Bu kabi fe‘llardan yasalgan salbiy bo‘yoqqa ega so‘zlar ancha: tur-e, bor-e, ket-e, yo‘qol-e va shu kabilar. Ikkinchi qismdagi “padaringga la‘nat sening” – ya‘ni “sening otangga la‘nat bo‘lsin” qarg‘ishi mantiqiy jihatdan juda salbiy sanaladi, lekin hozirgi kunda ham, asar yozilgan davrda ham jiddiy qarg‘ish sifatida qaralmagan. “Tarbiya bergan otangga la‘nat” mazmunida qo‘llaniladi hamda ko‘proq erkak kishi nutqiga xos qarg‘ish hisoblanadi. Bu qarg‘ash yuqoridagi tasnifga ko‘ra “bilvosita” qarg‘ash turi sanaladi,

<sup>7</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.111.

<sup>8</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.47.

ya'ni ota orqali farzandni qarg'ash. Urdu tiliga دور ہو جا میری نظروں سے – “Ko'zimdan yo'qol, nari bo'l” deya o'girilgan. Asliyatdagi qarg'ish so'zi tarjimada ifodalangan emas. Lekin jumladagi salbiylik tarjimada ham kitobxonlarga yetkazib berilgan.

2. qorning oshga to'ymasin – bu qarg'ish – hamisha och yur, doim oshga zor bo'l degan ma'noni ifodalaydi. Urduga ushbu qarg'ish so'zi! تو ہمیشہ بھوکا تڑپتا رہے – so'zma-so'z tarjima qilinganda – “Sen hamisha ochlikdan tirishib yur” kabi bo'ladi. Aniqrog'i, “ochlikdan qiynalgin” deya o'girilgan. Asliyatdagi ma'no urdu tiliga so'zma-so'z o'girilgan va tarjimada ham asliyatdagi salbiy ma'no o'z aksini topgan.

3. juvonmarg bo'l! – aynan ushbu qarg'ish, yuqoridagi misoldan farqli ravishda so'zma-so'z tarjima qilingan. تجھے کم سنی بی میں موت آ جائے! – “bolaligingdayoq ajaling kelsin” singari. “Juvonmarg” qarg'ishi ham shu ma'noni anglatishini hisobga olgan holda, tarjimadagi ma'no to'liq yetkazib berilganligi va bu jumlada so'zma-so'z tarjima o'rinli qo'llanilganligi kuzatiladi.

Navbatdagi misollarda “Bachchag'ar” so'zi ishlatilgan jumlar tahlil qilindi:

–Yuraver, bachchag'ar, hozir choy ichasan. [Sh.B.98]

ارے چل بھی، حرام زادے۔ [سرگزشت ایک لڑکے کی - ص. ۱۰۹]

–Obbo bachchag'ar-ey, quv ko'rinasan-a, ha, mayli, mayli. Lekin ko'p yolg'onlamagin! [Sh.B. 64]

ارے شیطان کی اولاد! [سرگزشت ایک لڑکے کی - ص. ۴۹]

Mazkur misollardagi salbiy mazmuni ifodalovchi so'z ham asliyatda bevosita nutq yo'naltirilgan kishiga nisbatan aytilgan. Har ikkala misolda “bachchag'ar” so'zi qo'llanilgan. “Bachchag'ar (bachcha+g'ar) so'k. 1. Nafrat, g'azab bilan qattiq koyishni ifodalaydi. 2. Yengil koyish, norozilikni ifodalaydi”<sup>9</sup>. Lug'atda keltirilgan izohdan ham ko'rinib turibdiki, bu so'z ham ikki ma'noda: koyish va g'azablanib so'kish ma'nolarida qo'llaniladi. Asliyatdagi keltirilgan birinchi misolda ham, ikkinchi misolda ham xo'jayin va ishchi muloqotida u qadar salbiy emas va vaziyat ham juda jiddiy emas. Birinchisida xo'jayin tomonidan ishchisini koyishi uchun shu so'zni aytadi hamda urdu tiliga bu so'z “حرام زادے” – “haromzoda” deb tarjima qilingan. Urduga “bachchag'ar” so'zini “haromzoda” deb o'girish biroz qo'polroq chiqqan, nazarimizda. Chunki “haromzoda” “bachchag'ar”ga nisbatan ancha salbiyroq mazmundagi so'z sanaladi. Agar o'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qilinsa, “Haromzoda (a.+f. – haromdan bo'lgan, nikohsiz tug'ilgan) 1. ayn. Haromi. 2. Ko'chma kam. qo'll. O'z jinsi, zotidan bo'lmagan; begona (narsalar haqida)”<sup>10</sup>. Ko'rinib turibdiki, mazkur gapda tarjimon analog usulini berib, salbiylikni oshirib yuborgan. Kontekstdagi vaziyat esa bu darajada jiddiy bo'lmagan.

Ikkinchi misolda kelgan “bachchag'ar” so'zi ham xo'jayin tomonidan ishchi bolaga nisbatan salbiylikni emas, ko'proq koyish, ogohlantirib qo'yish uchun ishlatilgan. Urdu tiliga u “شيطان کی اولاد – shaytonning bolasi” singari o'girilgan. Urduga kontekst bo'yicha qaralsa, urdu tilida “ارے” – “are” so'zi qo'shilgan va bu gapga biroz ijobiy ruhni kiritgan. So'zma-so'z tarjimasi – “Hey, shaytonning bolasi” bo'ladi va shundan kelib chiqqan holda birinchi misolga nisbatan ikkinchi misolda ijobiy mazmun va ruh nisbatan ko'proq berilgan. Natijada birinchi misolga nisbatan ikkinchi misolda “bachchag'ar” qarg'ishi asliyatga yaqinroq tarjima qilingan.

Yuqoridagi misollardagi qarg'ish, salbiylikni ifodalovchi so'zlar kimningdir o'z nutqida boshqa birovga nisbatan qo'llagan so'zlaridir. Odam ba'zida o'zini o'zi ham koyishi, qarg'ashi mumkin. Biron-bir aybli yoki xato ish qilganida, o'zidan nafrati oshib, salbiy so'zlarni o'ziga qarata aytadi. “Yulduzli tunlar” romanidan keltirilgan misolda aynan shunday vaziyat o'z aksini topgan:

Asliyatda	Rus tilida	Urdu tilida
– Men yuzi qora sabab bo'ldim o'limga! Men! [Yu.T. 25]	– О, я проклятая виновата в его смерти! Я! [З.Н. 22]	ہاے کتنی منحوس ہوں! میں بے قصوروار ہوں ان کی موت کی! میں! [ظہیر الدین بابر]

<sup>9</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 54.

<sup>10</sup> O'sha asar. B.46.

Romandan keltirilgan ushbu misolda Umarshayx Mirzoning o'limiga o'zini aybdor sanayotgan Qorako'z b'gimning so'zlari o'z aksini topgan. U o'zini o'zi yomonlab, "Yuzi qora" iborasini ishlatgan. Bilamizki, qora rangining o'zi ham ko'proq salbiylikni ifodalovchi rang sanaladi va qarg'ish so'zlarini qo'llashda ko'pincha salbiylikni ifodalash uchun qo'llaniladi. F.Eshboyeva rang-tus bilan bog'liq qarg'ish so'zlariga shunday ta'rif keltiradi: "O'zbek xalq qarg'ishlarining yana bir turi rang-tus bilan bog'liq bo'lib, unda qarg'ovchi raqibiga bo'lgan munosabatini ranglar orqali bayon etadi. Rang-tus bilan bog'liq qarg'ishlarning xarakterli xususiyati shundaki, mavjud barcha ranglar birday qo'llanilmay, asosan, inson ruhiyati va qadimiy urf-odatlar hamda marosimlar bilan bog'liq ranglar tanlanadi<sup>11</sup>. Olingan misoldagi ushbu ibora ko'proq ruhiy holatni ifodalaydi va bunda raqib ikkinchi shaxs emas, bevosita shu kishining o'zi sanaladi. Rus tiliga bu ibora "Проклятая" – "la'nati, la'natlangan" deb o'girilgan va urduga ham "منحوس" – "naqadar baxtsiz, badbaxtman" singari o'z ifodasini topgan. "منحوس" – so'zi urdu tilida bir nechta ma'nolarni anglatishini yuqoridagi misollar orqali ko'rib chiqildi: 1. "jirkanch", "qabih", "juda yomon", "iflos". 2. "baxtsiz". Asliyatdagi salbiy ifoda rus tilida ham, urdu tilida ham analog usuli orqali tarjima qilingan. Umumiy ma'noda tahlil qilganda rus tilida ham, urdu tilida ham kontekstdagi ma'no to'g'ri yetkazib berilgan, ya'ni "yuzi qora" rus tiliga "проклятая" va urdu tiliga "baxtsiz" ma'nolarini anglatuvchi so'zlar bilan ifodalangan.

Yoki yana bir misol:

– Ha... o'lgur, sen olgandirsan, hozir berasan, ber. [Sh. B.10]

ارے موت آجائے تمہیں! [سرگزشت ایک لڑکے کی - ص ۵]

Yuqorida ta'kidlanganidek, asosan, ayollar nutqiga tegishli qarg'ish, salbiy ma'noni ifodalovchi so'zlar borki, ular muannas jinsi vakillariga xos bo'ladi. "O'lgur" qarg'ishi ham shular jumlasidandir. Umuman, o'zbek qarg'ishlarida o'lim bilan bog'liq qarg'ishlar juda ko'p sanaladi. Bunda nafaqat "o'lim" so'zining o'zi, balki "ajal", "yer yutmoq" va shu kabi o'limni anglatuvchi so'zlar ishtirok etgan qarg'ishlar ham kiradi. Qissadan olingan mazkur misolda singilning akasiga nisbatan jahl ustida aytgan qarg'ishi keltirilgan. Kontekstdagi vaziyatga ko'ra bu unchalik jiddiy qarg'ish emas, shunchaki asabiylashganda aytilgan so'z. Urdu tiliga ham u "ارے موت آجائے تمہیں!" – "ey, o'lib ket-ey" deb o'girilgan. Ko'rinib turibdiki, asl matndagi mazmun tarjima matnida ham o'z ifodasini topgan.

Shunday salbiylikni ifodalovchi so'zlar borki, ular aslida juda qo'pol sanaladi. Kishi bu kabi so'zlarni shunchaki g'azablanganda ham qo'llashi mumkin, ammo uning tag ma'nosi o'ta salbiylikni ifoda etadi. Masalan, "haromi" – o'zida kuchli negativlikni ifodalaydi. Mazkur qarg'ish, odatda, odam qattiq asabiylashganda yoki biron-bir kishiga nisbatan u o'ta katta xato, gunoh ish qilib qo'rganida qo'llanadi. Haromi – og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham o'ta kuchli haqoratli so'z sanaladi. O'zbek tilining izohli lug'atida bu so'zning ikki ma'nosi keltirilgan: "(a.+f. – kimsaning moliga, harom narsaga daxl qiluvchi; o'g'ri, qaroqchi)" 1. O'zaro nikoh qilinmagan erkak va ayoldan tug'ilgan bola; 2. Ko'chma. Shunday ma'noli so'kish, haqoratni bildiradi; iflos, yaramas"<sup>12</sup>. Asarda ham xo'jayin o'z xizmatkoriga uning katta xato ish qilib qo'rganida dialogi davomida shunday qarg'ish so'zi qo'llaniladi:

– Nima deyapsan, haromi, boshqa shuncha aravakash otlar turib, kelib-kelib, mening birdan-bir boqib qo'rgan uloqchi otim bilan suv tashiysanlarmi, padar la'nat! [Sh.B. 66]

ارے کمینے، پھر وہی بکواس؟" باے اپنی جگہ سے اچھلتے ہوئے چیخ پڑا۔ اس کا چہرہ آگ کی طرح دہکنے لگا تھا اور ہونٹ کپکپا رہے تھے۔ - "چھکڑے کھینچنے کے لئے ہمارے ہاں جانے کتنے ہی گھوڑے پلے ہوئے ہیں! میری واحد قدمباز غوری سے پانی کی ڈھالای کرنے کی بات آخری کس گدھے کو سوجھی تھی؟ ارے میں تو اسے مقابلوں کے لئے پال رہا تھا! بولنا کیوں نہیں، ملعون؟" - [سرگزشت ایک لڑکے کی - ص ۵۶] گھوڑوں کے

– Xushxabaring qursin, padar la'nat! [(Sh.B.68 )]

لعنت ہو تیری خوشخبری پر۔ [سرگزشت ایک لڑکے کی - ص ۵۵]

Yuqoridagi misollarda asliyatda salbiylikni ifodalovchi bir nechta leksik birlik mavjud:

<sup>11</sup> Эшбоева Ф. Ўзбек халққарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: Филол. фан.номз. ... дисс. – Тошкент: 2008. – Б. 86.

<sup>12</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.46.

Haromi – bu soʻzga yuqorida taʼrif keltirildi. Urduga bu soʻz “gda” soʻzi bilan oʻgʻirilgan. Uning urdu tilida bir nechta maʼnosi bor: “1. gda, eshak; 2. Ahmoq, kaltafahm<sup>13</sup>. Bu yerda tarjimaning analog usulidan foydalanib tarjima qilingan va natijada aslyatdagi salbiylik darajasi biroz kamaygan. Agar ushbu soʻz “haromzoda” deb oʻgʻirilganda, aslyatdagi hissiy-ekspressivlik yanada ortgan boʻlar edi.

Padar laʼnat – ushbu qargʻish ham yuqoridagi misolda tahlil qilingan edi. Hozirgi ikki misolda uni urduga: 1. “laʼnati” – “ملعون”, 2. laʼnat boʻlsin” – لعنت بو, deb tarjima qilingan. Aslyatda oʻziga emas, otasiga nisbatan laʼnatni anglatadigan ibora ishlatilgan boʻlsa, tarjima matnida u oʻziga va ikkinchi misolda esa, keltirgan xabariga nisbatan aytilgan laʼnatga almashtirilgan, yaʼni aslyatdagi otasiga nisbatan aytilgan qargʻish soʻzlari tarjima asarida bevosita aybdorning oʻziga va uning olib kelgan xabariga nisbatan aytilgan. Ammo ikkala misolda ham salbiylik saqlanib qolgan. Bundan tashqari, birinchi misolda tarjimon bu ikki gapning orasiga psixolingvistik vositani ham qoʻshgan, yaʼni u aslyatdagi bir yaxlit jumlani ikkiga boʻlib tarjima qilgan va gaplar orasida boyning ichki kechinmalarini ham aks ettirgan “اس کا چہرہ آگ کی طرح دہکنے لگا تھا” – “Yuzlari olovdek yonib ketdi” jumlasini kabi. Bu esa urdu tilida oʻquvchi kitobxonlarga vaziyatning jiddiyligini, boyning jahli qattiq chiqqanligini chuqurroq ifoda etish uchun xizmat qilgan va tarjima oʻrinli boʻlgan.

“Yulduzli tunlar” romanida nafaqat kishilarga nisbatan, balki hayvonlarga qarata ishlatilgan qargʻish soʻzlari ham kuzatildi:

Aslyatda	Rus tilida	Urdu tilida
Maʼzur tuting amirzodam, – dedi, – harom oʻlgur ot tiqildi. [Yu.T.56]	Помилуйте, повелитель, – никак не сдвину поганца. [З.Н.58]	معاف فرمائیے ، حکمران . کمبخت گھوڑا کسی طرح ٹس سے مس ہی نہیں ہوتا۔ بابر۔ ۴۹ص۔ ظہیرالدین]

Asardan olingan misolda tiqilib, joyidan qoʻzgʻala olmayotgan otga qaratilgan qargʻish soʻzi oʻrin olgan. “Harom oʻlgur” qargʻishi hayvonlarga nisbatan aytilganda, ularning harom holicha oʻlishi tushuniladi, yaʼni hayvonlarning nopok holda oʻlishiga aytiladi. Rus tiliga bu qargʻish bir soʻz “поганец” – “haromi” soʻzi bilan oʻgʻirilgan. Aslyatda asosiy urgʻu hayvonga harom oʻlim tilash boʻlsa, rus tilida bu oʻz aksini topmagan. Urduchada esa ushbu jumla soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, quyidagicha boʻladi: “Maʼzur tuting, hukmron, badbaxt ot sira ham miq etmayapti”. Gapdagi “harom oʻlgur” qargʻishi “کمبخت گھوڑا کسی طرح ٹس سے مس ہی نہیں ہوتا” – “badbaxt” soʻzi bilan berilgan. Bunda aslyatdagi nazarda tutilgan mazmun soʻzma-soʻz aks etmagan boʻlsa ham, ammo mazmun yetkazib berilgan.

Salbiylikni ifodalashda yana bir qoʻllaniladigan va keng tarqalgan usul bu – hayvon nomlarini qoʻshib haqoratlash sanaladi. Bu kabi haqorat soʻzlari oʻzbek tilida ham, urdu tilida ham juda koʻp tarqalgan. Oʻzbek tilida “eshakning itning bolasi”, “choʻchqa” yoki umumiy qilib “hayvon” soʻzlari va shu kabi hayvon nomlari muloqotda salbiylikni ifoda etadi. Urdu tilida ham murojaatda, ogʻzaki nutqda shunday soʻzlarni uchratish mumkin. Ularda koʻproq hayvon+bolasi koʻrinishidagi salbiy jumlar kuzatiladi. Kishilarning bir-biriga nisbatan boʻlgan salbiy qarashlarini, sovuq munosabatni ifoda etishda ularni hayvonga, parranda va qushlarga qiyos qilish keng tarqalgan usul hisoblanadi. Ayniqsa, ogʻzaki nutqda mazkur usul keng qoʻllaniladi. Bundan tashqari, urdu tilida ham, oʻzbek tilida ham oʻta qoʻpol murojaat qilish shakli mavjud. Bu shakl “Hayvon +koʻplikda -ke, muannasda -ki, muzakkarda -ka, (-ning) posleloglari + bola (farzand) soʻzi”. Masalan, “ارے کتے کے بچے! – “Hoy! Itning bolasi!...” kabilar.

Quyida hayvon nomlari ishlatilgan misollar tahlil qilindi:

– Hoy itdan tuqqan, bu qiligʻing nimasi?! [ Sh.B. 68]

[ سرگزشت ایک لڑکے کی۔ ۵۶ ص ] [بول، کتے کی اولاد۔۔۔

<sup>13</sup> Xolmirzaev T. Urduha - oʻzbekcha lugʻat – Pokiston: Muqtadira Qaumi Zaban, 2003. – 337 b.



– Kun choshka bo‘lib ketdi-yu, qo‘ylarni bozordan qoldirib, senlar salqinda uxlab yotibsan, itdan tuqqanlar! [Sh.B.77]

[سرگزشت ایک لڑکے کی۔ ۸۱ ص.] دو پہر ہو چکی ہے اور تم کتے کے پلو سائے میں لیٹے ہوئے سو رہی ہو

Keltirilgan har ikkala jumlada ham bir xil qarg‘ish – “itdan tuqqan” iborasi keltirilgan. Bu ko‘chma ma‘nodagi ibora o‘ta salbiylikka ega sanaladi. Har ikkala misol ham ishchilaridan norozi bo‘lgan xo‘jayin va ishchi o‘rtasidagi nutqi sanaladi. Uni urdu tiliga tarjimon va muharrir quyidagicha o‘giran: birinchi misolda – “بول، کتے کی اولاد” – “gapir, itvachcha” va ikkinchi misolda ham – “کتے کے پلو” – “itning bolasi” deb berilgan. O‘zbek tilidagi ma‘no biroz o‘zgargan bo‘lsa ham kuchli salbiylik har ikkala jumlada ham seziladi. Bu hol ayniqsa, ikkinchi gapda aks etgan. Ikkala jumla ham urdu tiliga bir xil “itvachcha” deb o‘girilgan.

Ba‘zi olimlar tomonidan aynan “itdan tarqagan” iborasi so‘kish ekanligi va uning kelib chiqishi uzoq o‘tmishga borib taqalishini ta’kidlaganlar. Bunda qadimgi zamonda Sharqda yashagan xalqlarning tasavvurlari, ya’ni totemistik tasavvurlari mahsuli sifatida qarash ilgari suriladi.

Qarg‘ish so‘zlarini boshqa tilga o‘girishda har xil usullar qo‘llanilgani kuzatildi. Fikrimizcha, ulardan eng to‘g‘risi so‘zma-so‘z yoki analogni berish sanaladi. Zero, E.Ochilov aytganidek: Aslida, “Tarjimada so‘zni emas, ma‘noni berish muhim. Shuning uchun so‘zma-so‘z tarjimadan qochishga da’vat qilinadi. Lekin ba‘zan so‘zma-so‘z tarjima qilish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi, ya’ni asliyat – aynan so‘zma-so‘z tarjima muayyan hollarda qonuniy hodisadir. Erkin tarjimada esa muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi. U asliyatni xohlagancha o‘zgartiradi, qisqartiradi. Unga o‘zidan qo‘shadi. Ba’zida asl nusxa mazmuni va uslubini saqlagan holda uni o‘z so‘zlari bilan yangidan yozib chiqadi”. Yuqoridagi salbiylikni ifoda etgan ko‘p misollarda so‘zma-so‘z tarjima o‘rinli qo‘llanilgani va bu tarjimaning adekvat chiqishiga xizmat qilganiga, ma‘no to‘liq aks etganiga guvoh bo‘ldik.